

PSIXOLOGIYANING MUSTAQIL FAN SIFATIDA TARKIB TOPISHI VA OCHIQ INQIROZ DAVRIDAGI PSIXOLOGIYA YO'NALISHLARI

Sipatdinov Arman Sharafatdinovich

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti
San'atshunoslik fakulteti amaliy psixologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

Maturazova Zulfiya

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti óqtuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10719194>

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologiyaning rivojlanish va mustaqil fan sifatida tarkib topish davrida yuzaga kelgan inqirozlar va bir qator olimlarning o'z nazariyalariga tayanib asos solgan psixologik maktablar, shuningdek ushbu maktab vakillari tomonidan bildirilgan fikrlar va ilgari surilgan g'oyalarga to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ong, idrok, introspeksiya, stimul, reaksiya, Fi fenomeni, onglilik ong osti, ongsizlik.

THE COMPOSITION OF PSYCHOLOGY AS AN INDEPENDENT SCIENCE AND DIRECTIONS OF PSYCHOLOGY IN THE PERIOD OF OPEN CRISIS

Abstract. This article talks about the crises that occurred during the development and formation of psychology as an independent science, and the psychological schools founded by a number of scientists based on their theories, as well as the opinions expressed and ideas put forward by representatives of this school.

Key words: consciousness, perception, introspection, stimulus, reaction, Phi phenomenon, conscious subconscious, unconscious.

СОСТАВ ПСИХОЛОГИИ КАК САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ НАУКИ И НАПРАВЛЕНИЯ ПСИХОЛОГИИ В ПЕРИОД ОТКРЫТОГО КРИЗИСА

Аннотация. В данной статье говорится о кризисах, произошедших в ходе развития и становления психологии как самостоятельной науки, и психологических школах, основанных рядом ученых на основе их теорий, а также высказанных мнениях и идеях, выдвигаемых представителями этой школы.

Ключевые слова: сознание, восприятие, интроспекция, стимул, реакция, феномен Фи, сознательное подсознание, бессознательное.

Psixologiya fani antik davridan boshlab falsafa, keyinchalik biologiya singari fanlar tarkibida rivojlanib keldi. O'z davrining buyuk faylasuf, biolog, sotsiolog, fiziolog va boshqa olimlari hisoblangan Aristotel, Demokrit, Fales, Dekart, Dj.Lokk, Ch.Darvin, T.Gobbs, D.Gartli, P.Golbaxlar o'zlarining tadqiqotlari arqali psixologiya faning yanada rivojlanishiga va uni ilmiy dalillar bilan boyitishga, shuningdek insonlarda kechadigan turli xil psixologik holatlarni ilmiy asoslar bilan isbotlashga katta hissa qo'shdilar. Shulardan buyuk faylasuf Aristotel o'zining "Jon to'g'risida" asarida psixologiya faniga doir dastlabki ilmiy fikrlarini bayon etdi va keyinchalik insonlarda ruhga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. Shu boisdan ko'pgina faylasuflar ham ruh haqida o'z qarashlarini taqdim qila boshladilar.

Masalan, Geroklit va Demokrit singari olimlar ruhni olovdan kelib chiqqan deb hisoblashsa, Anaksimenes havo asosida vujudga kelganligini takidlab o'tgan. Keyinchalik

Dj.Lokkning psixik holatlar birlamchi holatlar ekanligi va inson ongi uning hissiyotlari orasiga yashiringanligi to'g'risidagi nazariyasi, XVII asrga kelib esa T.Gobbs, D.Gartli, P.Golbax singari bir qator ingliz olimlari tomonidan asos solingan determenizm tamoyillari va I.M.Sechenovning bosh miyada joylashgan markazlarning inson harakatlarining aktivligiga tasir qilishini aniqlash bo'yicha o'tkazgan tadqiqoti, shuningdek I.P.Pavlovning shartli va shartsiz reflekslar to'g'risidagi ilmiy dalillari psixologiya fanining mustaqil fan sifatida tarkib topishiga poydevor bo'ldi. 1879-yili Vilgelm Vundt boshchiligida Leypsig universitetida dunyoda eng birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasining tashkil etilishi bevosita psixologiya fanini mustaqil fan sifatida qabul qilish va zamonaviy psixologiya haqida dastlabki qarashlarning paydo bolishiga zamin yaratdi.

Yangi mustaqil psixologiya fanini o'rganish davomida olimlar tadqiqotlar o'tkazish orqali turli xil nazariyalarni yaratdi. Bu o'z mobaynida har xil qarashlarni ilgari suruvchi ko'plab psixologik maktablarning vujudga kelishini ta'minladi. Bu davirda harbir maktab namoyondalari o'z nazariyalarini katta baholashar va uni to'g'ri deb ko'rsatishar, boshqa maktab vakillarining esa kichik xatolarini ham baland ovozda jar solib raqobatlashar edi.

Shu sababli ham bu davr ochiq inqiroz davri sifatida yuritiladi (XX asrning 10-30 yy). Albatta, bu davirni faqat qoralashimiz noto'g'ri, chunki psixologik maktablar o'rtasidagi kuchli raqobat harbir maktabning o'z kamchiliklarini bilib olishiga va ularni qayta ishlab tuzatishiga asos bo'ldi. Bu o'z navbatida zamonaviy psixologiyaning yanada ilmiy faktlar bilan taminlanishiga, ko'pgina farazlarni ilmiy dalillar bilan asoslashga asosiy ustun vazifasini o'tadi.

Psixologiyaning mustaqil fan sifatida tarkib topishida ilimiy maktablarning o'rni katta.

Shulardan biri strukturalizm maktabi hisoblanadi. Bu maktab asoschilari sifatida V.Vundt va E.Titchenerlar ko'rsatiladi. Bu maktab namoyondalarining fikriga ko'ra psixologiya bu – ong va ong tarkibiga kiruvchi psixik hodisalar (his-tuyg'u, sezgi, fikr v.b)ni tadqiq etuvchi fan hisoblanadi. Ular barcha e'tiborni asosan aqlni inson psixik elementlarini ixtiyoriy boshqarish kuchiga egaligini va psixik elementlarni o'rganishga qaratdi. Bu yo'nalishda ular introspeksiya, ya'ni insonlarni rag'batlandirish orqali o'zlarida his qilayotgan narsalarni so'rashga asoslangan usuldan foydalandilar.

XIX asr oxirlarida strukturalizm vakillarining psixologiya ong elementlarini o'rganuvchi fan haqidagi nazariyalariga reaksiya sifatida funktsionalizm maktabi paydo bo'lgan. Uning asoschisi U.Djeyms bo'lib, tarafdorlari Dj.Dyui, X.Karr va Dj.Rowlandlar hisoblanadi. Bu maktab nazariyasiga binoan psixologiya nafaqat ong elementlarini, balkim ongning asosiy vazifalarini va unda yuz beruvchi har xil hodisalarni, shuningdek ongning tashqi muxitga moslashishini o'rganuvchi fandır. Strukturalistlar insight usulidan foydalana olmas va buning oqibatida ular hayvonlar, yosh bolalar va aqli zaiflarni o'rganisha olmas edilar. Ulardan farqli o'laroq funktsionalistlar ushbu usuldan foydalana olish imkoniga ega edilar.

Hozirgi kunda ushbu XX asrda yaqqol ko'zga tashlangan harakatlarning har ikkisi ham mavjud emas.

Ushbu davrda yuzaga kelgan maktablardan yana biri bixeviorizm (ingliz. "behavior" – xulq-atvor) maktabi hisoblanadi. Bu yondashuv asoschisi sifatida Dj.Uotson takidlanadi. Olim psixologiya – his-tuyg'u, sezgi, istaklar yoki fikrlar, asosan ong haqidagi talimot degan tushunchaga qat'iy e'tiroz bildirgan, hatto bu haqida: "Hechkim hechqachon ongni ko'rmagan,

tegmagan, hidlamagan, tatib ko'rmagan yoki harakatga keltirmagan. Ong shunchaki ilmiy farazdan boshqa narsa emas, uni xuddi "ruh"ning eski tushunchasi kabi eksperimental tekshirish imkonsizdir" deya fikr bildirgan.

U psixologiyani ham fizika, kimyo kabi tabiiy fanlar qatoriga qo'shishga harakat qilgan, lekin buning uchun ong, sezgi, his-tuyg'u singari ba'zi ichki jarayonlarni o'rganish uchun introspeksiyaning emas, balkim xatti-harakatlarni kuzatish kerakligini takidlagan. Shu bois ilmiy diagrama sifatida S(stimul) va R(reaksiya) tushunchalarini taqdim qildi. Stimul – ichki yoki yashqi tomondan tasir etuvchi kuch. Reaksiya – ushbu tasirga nisbatan organizmning bildirgan javobidir.

Bixevioristlar uchun o'rganish obyekti hayvonlar va insonlarning xatti-harakatlari va xulq-atvori hisoblanar edi. Ular barcha etiborni ongga emas, balkim xatti-harakatlar, ularning yuzaga kelishi va ma'lum sharoitlarda o'zgarishiga qaratish kerakligini da'vo qilardi. Yo'nalish tarafdorlarining fikricha xulq-atvorni tadqiq qilish orqali qo'zg'atuvchilar orasidagi bog'liqlik va ularning tashqi tasirga javobini aniqlash, keyinchalik bu orqali xatti-harakatlarni bashorat qilish, shu jumladan boshqarish ham mumkin bo'ladi.

Germaniyada vujudga kelgan geshtalt yo'nalishning asoschilari sifatida X.Erenfels, M.Vertgeymer, K.Koffka, V. Köhler va K.Levinlarni ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu yo'nalish asoschilari ongni molekulyar nuqtai nazardan o'rganish lozimligi to'g'risidagi nazariyani ilgari surgan strukturalistlarga qarshi chiqqanlar. Geshtaltchilar asosan eksperiment obyekti sifatida idrokni o'rganishgan.

Ular fikricha idrok, ong, sezgi va shunga o'qshash boshqa hodisalar butun bir yaxlitlikdir.

Alohida olingan qism va elementlar butun yaxlit strukturaning mazmunini belgilay olmaydi, aksincha yaxlit struktura ushbu qism va elementlarning xususiyat va mazmunlarini belgilashga qodirdir. Inson idroki harqanday tasvirlar va shakllarning tarkibiy qismlarini emas, balkim butun bir majmuini qabul qiladi. Masalan, maxsus teshikchalar orqali istalgan harf shaklini yasab, uni barmoq bilan silab qaysi harfligini aytish mumkin. Lekin, o'sha harfning malum joylarida teshikcha qoldirmasdan yasalsa ham uning qaysi harfligini topish mumkin.

Geshtaltchilar inson idroki yetishmayotgan qismni to'ldirish va inson ongida yaxlit strukturani xosil qilish qobiliyatiga ega deya takidladilar va ushbu hodisani M.Vertgeymer Fi(Phi) fenomeni bilan asoslab berdi. Keyinchalik ushbu yo'nalish vakillari nafaqat idrok, balki xotira, iroda, ong va tafakkur hodisalariga ham o'z talimotlarini tatbiq etdilar.

Shu jumladan psixologiya tarixida katta iz qoldirgan psixoanaliz(freydizm) maktabi ham mana shu davrda vujudga keldi. Bu yo'nalish namoyandalari sifatida avstriyalik psixolog Z.Freyd va uning shogirtlari A.Adler, shuningdek K.Yunglarni takidlashimiz mumkin. Ushbu yo'nalish nazariyasining boshqalaridan farqi, ular psixik hodisalarning tuzilishi, vazifalari yoki ong, idrok kabilarga etibor qaratmagan.

Ularni asosan insonlardagi g'ayritabiiy harakatlar va ularning kelib chiqishi qiziqtirgan.

Tadqiqotlar natijasida Z.Freyd inson ongining 1.onglilik; 2.ong osti; 3.ongsizlik kabi darajalarini aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Bu, albatta, katta yutuqlardan biri edi, chunki ongsizlik tushunchasi insonlardagi g'ayritabiiy harakatlar, hatto nevroz singari kasalliklarning asoslarini ilmiy isbotlashga zamin yaratdi. Olim o'z tadqiqotlarida jinsiy qoniqish masalalariga katta etibor qaratdi.

Lekin, inson hardim ham o'z istaklarini amalga oshirishga muvofiq bo'la bermaydi. Shu asosida olim o'z vaqtida qondirilmagan harqanday jinsiy mayillar, aytilmagan hissiyotlar yoki bildirilmagan g'azablar vaqt o'tishi bilan onglilikdan chiqishi, lekin ong osti yoxud ongsizlikda saqlanishi va shu omillar to'satdan insonda psixik o'zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishini takidladi. Shuningdek, ongsiz tabiiy (jinsiy ehtiyojni qondirishga qaratilgan) mayl va tashqi anglab turilgan vaziyat o'rtasidagi, aniqrog'i ichki ruhiy kechinmalar va odat, axloqiy tamoyillar, ijtimoiy senzuralar orasidagi konfliktlar asosida insonlarda kuchli nevrologik kasalliklar kelib chiqishi mumkinligini qayd etgan.

Z.Freyd bemorlarni davolashda dast avval gipnoz usulidan foydalangan bo'lsa ham, keyinchalik ushbu usulni rad etgan, chunki bu muammoni batamom hal qilish imkonini bermasligini qayd etgan. O'z tadqiqotlari asosida u yangi psixoanaliz deb nomlanuvchi usulni yaratdi.

Unga ko'ra bemordan divanga yotishlari (bu psixoanalitikga bo'lgan ishonch muhitini yaratadi) va barcha narsalarni ro'y-rost aytishlari so'raladi. Bu uslub orqali inson ongidan o'chgan, lekin ong osti yoki ongsizlikda saqlangan barcha malumotlarni, jumladan bolalikdagi har xil travmalar, depressiyalar, stresslar, jinsiy muammolar yoki fobiyalarni aniqlash, bemorga tashhis qo'yish va unga yuqori samarali yo'rdam ko'rsatish mumkin.

Albatta, psixologik yo'nalishlar faqat yuqorida ko'rsatilganlardan iborat emas, bunnan tashqari vyursburg, gumanistik, kognitivizm singari birqancha maktablarni ham ko'rsatishimiz mumkin. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanish davrida bunday maktablarning ko'pligi, o'z navbatida fanga har tarafdin nazar solishga, nazariyalarning xilma-xilligiga va buning asosida sog'lom raqobatning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi.

Raqobatdoshlarning o'z kamchiliklarini zudlik bilan to'g'irlash va nazariyalarini yanada ilmiy isbotlashga urinishlari psixologiya fani zahirasiining aniq ilmiy dalillar bilan boyishiga va mustaqil fan sifatida tarkib topishiga katta hissa qo'shdi. Shu kabi ko'pgina mashaqatli, lekin samarali mehnatlar asosida hozirgi kundagi barchamiz biladigan psixologiya fani boshqa fanlar kabi mustaqil fanlar qatoridan joy oldi.

REFERENCES

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007
2. Davletshin M. G. «Umumiy psixologiya» T-2000
3. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002
4. MUHAMEDOVA D.G'., MULLABOYEVA N.M., RASULOV A.I. "UMUMIY PSIXOLOGIYA" Toshkent «MUMTOZ SO'Z» 2018
5. <https://fayllar.org/psixologik-maktablarning-yuzaga-kelishi-tarixi-geshtalt-psixol.html?page=2>
6. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/psixologiya/psixologiya-maktablari>
7. <https://psy.wikireading.ru/1950>
8. <https://edprodpo.com/blog/psychology/osnovnye-shkoly-psikhologii/>
9. Matiyazovna M. Z. EXPERIMENTAL STUDY OF PATRIOTISM //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 12.

10. Матуразова З. М. ВОСПИТАНИЕ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ЧУВСТВА У ПОДРОСТКОВ НА ОСНОВЕ НАРОДНЫХ ТРАДИЦИЙ //Экономика и социум. – 2019. – №. 5 (60). – С. 930-933
11. Матуразова З. М. и др. ПАТРИОТИЗМ КАК ЭТНОПОЛИТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ У МОЛОДЕЖИ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН //Восточно-европейский научный журнал. – 2016. – Т. 8. – №. 4. – С. 121-122.